



Creative skills and customization tools in the “Utgan kunlar” of Abdulla Qadiri

Ranokhon SOBIROVA¹

Andijan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2024

Received in revised form

10 April 2024

Accepted 25 April 2024

Available online

25 July 2024

Keywords:

society,
culture,
social environment,
linguistics,
thinking,
ethnolinguistics,
consciousness.

ABSTRACT

In the development of modern linguistics, attention has been paid to studying the linguistic consciousness and thinking of the language owner in connection with factors such as social environment and national culture. At the end of the 20th century, the widespread spread of the anthropocentric approach led to the formation of such linguistic trends as cognitive linguistics, psycholinguistics, linguoculturalism, sociolinguistics, pragmalinguistics, ethnolinguistics, and today the integration of linguistics with other fields has become one of the main factors. In particular, the issue of interaction between the language owner, society, and culture has begun to be thoroughly studied.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3-pp14-19>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Abdulla Qodiriyning “O’tgan kunlar” asarida ijodkorlik mahorati va xususiylashtirish vositalari

ANNOTATSIYA

Kalit so’zlar:

jamiyat,
madaniyat,
ijtimoiy muhit,
tilshunoslik,
tafakkur,
etnolingvistika,
ong.

Zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotida til egasining lisoniy ongi va tafakkurini ijtimoiy muhit, xalq madaniyati kabi omillar bilan bog’liqlikda o’rganishga e’tibor kuchaydi. XX asr so’nggida antropotsentrik yondashuvning keng yoyilishi kognitiv lingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, etnolingvistika kabi lingvistik yo’nalishlarning shakllanishiga olib keldi va bugunga kelib tilshunoslik fanining boshqa sohalar bilan integratsiyalashuvi asosiy omillardan biriga aylandi. Jumladan, til egasi, jamiyat va madaniyatning o’zaro munosabati masalasi ham atroflicha o’rganila boshladi.

¹ Associate Professor, Department of Interfaculty Foreign Languages (Social Sciences and Humanities), Andijan State University.

Творческие навыки и инструменты кастомизации в произведении «Минувшие дни» Абдуллы Кадири

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

общество,
культура,
социальная среда,
языкознание,
мышление,
этнолингвистика,
сознание.

В развитии современного языкознания особое внимание уделяется изучению языкового сознания и мышления носителя языка, учитывая такие факторы, как социальная среда и национальная культура. В конце XX века широкое распространение антропоцентрического подхода способствовало формированию таких лингвистических направлений, как когнитивная лингвистика, психолингвистика, лингвокультурология, социоллингвистика, прагматическая лингвистика и этнолингвистика. Сегодня интеграция лингвистики с другими научными областями стала одним из ключевых факторов её развития. Особое внимание в исследованиях уделяется вопросам взаимодействия языка, общества и культуры.

Tilshunoslikda birinchilardan bo'lib V. Gumboldt til va madaniyatning o'zaro ta'siri muammosini hal qilishga urindi. So'nggi ikki asr davomida ilmiy jamoatchilik ushbu olim tomonidan ilgari surilgan olamning universal tasviri haqida gapirish kerakmi yoki har bir millat voqelikni idrok etishi va uning tildagi in'ikosini turlicha ifodalaydimi, degan masala xususida bahs yuritadi. V. Gumboldtning fikriga ko'ra, "har qanday tilga murojaat qilib, milliy xarakter haqida xulosa qilish mumkin" [1]. A.A. Potebnya, E. Sepir, Uorf kabi olimlarning gipotezalari V. Gumboldt g'oyasining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Xorijiy va rus tilshunoslari, N.L. Shamne, M. Bucholtz, M. Rijks, C. White, P. Zima, Ye.M. Verещagin, S.G. Ter-Minasova, L.V. Bazarova, V.G. Kostomarov, N.A. Krasavskiy, M.V. Milovanova va boshqalar, aynan, lisoniy birliklar ma'nosining lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganishga e'tibor qaratdilar. O'zbek tilshunosligida M.Mirtojiyev, N. Mahmudovning hammualliflikdagi "Til va madaniyat" kitobida birinchi marta tilning etnomadaniy xususiyatlari tadqiq etilgan [2] bo'lsa, bugungi kunda zamonaviy metodologik tamoyillar asosida til hodisalari va til birliklarining lingvokulturologik jihatlarini tadqiq qilish muhim yo'nalishlardan biriga aylandi va bu borada qator tadqiqotlar olib borilmoqda [3]

V.A. Maslova til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni quyidagicha tavsiflaydi:

Til – madaniyat uzvi deb ayta olamiz, chunki:

1) ota-bobolarimizdan qolgan madaniyatning ajralmas qismi;

2) madaniyatni o'zlashtirishda asosiy vosita;

3) til madaniy tarkibdagi barcha hodisalarning eng muhimidir, chunki agar biz madaniyatning mohiyati – ilm-fan, din, adabiyotni tushunishni istasak, bu hodisalarni tilda shakllangan kodlar deb hisoblashimiz kerak, chunki eng yaxshi ishlab chiqilgan model tabiiy tilda aks etadi. Shuning uchun madaniyatni konseptual anglash faqat tabiiy til orqali yuzaga kelishi mumkin [4].

Muayyan xalqning ijtimoiy hayoti va turmush tarzi, ilmiy va mehnat faoliyati, madaniy saviyasi, etnik jihatlarini o'rganishda shu xalq tilidagi til birliklarini, xususan, lug'at qatlamini chuqur tahlil qilish katta ahamiyatga ega.

Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik oralig'idagi fan bo'lib, til birliklarida madaniyatning aks etishini o'rganadi. M.R. Galiyeva "O'zbek lingvomadaniyatida diniy dunyo tasvirining verballashuvi" maqolasida Lingvokulturologiya vazifasini quyidagilarni o'rganishda deb hisoblaydi:

- 1) madaniyatning aks etishida tilning rolini aniqlash;
- 2) har bir tilning milliy-madaniy o'ziga xosligini ochib berish;
- 3) milliy-madaniy bo'yoqdor til birliklarini aniqlash va tahlil etish;
- 4) madaniy konseptlarning tildagi verballashuv usullarini aniqlash. [5].

Til milliy madaniyat va ijtimoiy voqelikni o'zida aks ettiruvchi vosita sifatida inson ongida olam manzarasi to'g'risidagi tasavvurlarni, shuningdek, muayyan xalq mentalitetidagi barcha o'zgarishlarni aks ettirar ekan, jamiyat tomonidan uzoq yillar davomida qabul qilinadigan rasm-rusumlar, an'ana va odatlar, hayot tarziga oid turli tushuncha va qarashlardan tortib, qardoshlik aloqalari, milliy turmush tarziga xos narsa-buyum, kiyim-kechak va hokazolar orqali o'z ifodasini topgan milliy-madaniy o'ziga xoslik inson hayoti va uning barcha rang-barangliklarini o'zida namoyon etadi.

Madaniy-etnografik xususiyatlar, turli millatlarning o'ziga xosligi, ekologik sharoitlarning har xilligi, jamiyat a'zolarining ijtimoiy jihatdan farqlanishi so'zlarning ifoda ma'nolari turlicha shakllanishiga olib keladi. Shu jihatdan lingvokulturologiya falsafa, aksiologiya va xalqning milliy-madaniy mentaliteti bilan o'zaro bog'liq bo'lib, jumladan, uy-ro'zg'or buyumlari mikromaydoni ham muayyan tillar lisoniy olamining an'anaviy qadriyatlari va o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini ma'lum darajada ochib beruvchi leksemalardir.

Zamonaviy tilshunoslik uchun nomlarning kelib chiqishi, predmetlar va tushunchalarning so'z orqali ifodalanishi va ularning milliy madaniyat bilan aloqasi kabi masalalar keyingi o'n yilliklarda juda dolzarb sanala boshladi. Ma'lumki, til – doimiy o'zgarib turadigan va takomillashib boradigan ochiq turdagi universal belgilar tizimi. Ijtimoiy-iqtisodiy turmushdagi sifat o'zgarishlari til evolyutsiyasining tezlashuviga turtki beradi va bu jarayon o'zaro muloqot vositasi bo'lgan ijtimoiy-etnik guruh nutqida aks etadi. Biroq ularni tilning ichki qonuniyatlariga, til me'yoriga muvofiq amalga oshirish talab etiladi. Shunday qilib, aksariyat til yangiliklari eng to'liq tushunish talablari bilan cheklanadi, nutqiy faoliyat doirasida va ma'lum bir tilning muloqot qonunlariga bo'ysunadi.

Har bir tilda dunyoni anglashning o'ziga xos usuli, ya'ni ma'lum bir tilda gaplashuvchilar uchun olamning o'ziga xos lisoniy tasvirlari bor va til egalari har bir so'zdan ana shu tasvirga muvofiq foydalanadi. Demak, insonlar olamni tildagi so'zlar orqali shakllangan in'ikosi yordamida idrok etadilar. So'zlovchi o'z nutqiy faoliyati orqali obyektiv olamni va o'z ichki dunyosini so'zda aks ettirgan holda ifodalaydi.

"Olam tasviri, jumladan, lisoniy tasviri tushunchasi insonning olam haqidagi bilim va tasavvurlarini o'rganishga asoslangan. Agar dunyo inson va u bilan o'zaro ta'sirdagi muhit bo'lsa, olamning lisoniy tasviri – atrof-muhit va inson haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash natijasidir. Shunday qilib, kognitiv tilshunoslik vakillari haqli ravishda olamning lisoniy tasviri ko'rinishida namoyish etilgan bizning konseptual tizimimiz jismoniy va madaniy tajriba bilan bevosita bog'liqdir, deb ta'kidlaydilar" [6].

Dunyodagi har bir millatning, jumladan, o'zbeklarning ham milliy mentaliteti o'ziga xos tarixiy, etnik tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar doirasida shakllangani bois, uning uy-ro'zg'or buyumlariga bo'lgan munosabati ham o'ziga xos tarzda bo'lishi shubhasiz.

Mavzuga oid leksemalarni tahlil qilish orqali ularning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganishda badiiy matnlar nihoyatda boy manba bo'la oladi. Chunki mahoratli o'zbek yozuvchilari asarlarida milliy kolorit, millatimizning hayot tarzi, o'ziga xos tabiati yorqin bo'yoqlarda tasvirlangan o'rinlar juda ko'p. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidan olingan quyidagi parcha orqali ro'zg'or buyumlari shaxsning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy mavqeini belgilashda muhim omil bo'la olishini yaqqol kuzatishimiz mumkin: *"Saroyning to'rida boshqalarg'a qarag'anda ko'rkamrak bir hujra, anovi hujralarga **kiygiz** to'shalgani holda bu hujrada qip-qizil **gilam**, uttalarda **bo'z ko'rpalar** ko'rilgan bo'lsa, munda **ipak va adras ko'rpalar**, narigilarda **qora charog'** sasig'anda, bu hujrada **sham'** yonadir, o'zga hujralarda yengil tabiatlik, serchaqchaq kishilar bo'lg'anida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda".* (A. Qodiriy "O'tkan kunlar") Yozuvchi oddiy ro'zg'or buyumlarini qiyoslash orqali *kigiz-gilam, bo'z ko'rpa – ipak va adras ko'rpa, qora charog'-sham'* kontekstual antinomiylarini hosil qilib, ikki qarama-qarshi ijtimoiy guruh turmush tarzidagi farqni tasvirlash vositasi sifatida voqelikni aniq tasavvur qilishga, Otabek timsolidagi ayrichalikning ijtimoiy ildizlarini ochib berishga erishgan.

Uy-ro'zg'or buyumlarining lingvokulturologik xususiyatlari, o'ziga xos milliylikni aks ettiruvchi darajasi haqida so'z borar ekan, belgilarning quyidagi ikki turi asosida tasniflash o'rinli deb hisoblaymiz: a) milliy-madaniy ma'noga ega leksik qatlam, b) madaniy komponentli ma'noga ega so'z [7].

Qumg'on – choy qaynatish uchun ko'pincha misdan yasaladigan, ichi qalay bilan oqartirilgan, ko'zacha shaklidagi dastali va qopqoqli idish; katta choydish [8]. (*teapot, often made of copper, tin-plated, with a cup-shaped handle and lid*)

"Toyir aka qumg'onni yana olov tomong'a itarib qo'ydi:

– Hozir damlaymiz, taqsir, hozir". (A. Qodiriy "Mehrobdan chayon")

Aytish mumkinki, **qumg'on** so'zi milliy-madaniy ma'noga ega leksik qatlamga mansub bo'lib, bu buyum asrlar davomida xalqning o'ziga xos turmush tarzining bir parchasi sifatida ishlatilib kelinadi.

Joynamoz islom dinida namoz o'qish uchun ishlatiladigan maxsus buyum. (*it is the item when someone use it during the prayer*) Tabiiyki, boshqa din vakillari uchun bu buyum ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega emas. Shunday ekan, o'z-o'zidan, ushbu buyum foydalanuvchilarining qanday etnik-madaniy guruhga mansublik belgisini yaqqol ifodalaydi.

Yasovul poygakdagi eshikdan Sulton Ali mirzoni boshlab kirganda Shayboniyxon hali ham shahnishinda o'sha joynamoz ustida o'ltirgan edi. (P. Qodirov "Yulduzli tunlar")

Sandiq – arabcha quti, yashik, sandiq. Turli buyumlarni, bisotlarni solib qo'yishga mo'ljallangan, ochilib-yopiladigan qopqoqli, qulf-kalitli, yashik shaklidagi uy-ro'zg'or buyumi [9]. (*Arabic box. Household item in the form of a box with a lid, lock and key, designed for storage of various items*) Sandiqdan turli millat vakillari foydalanadilar, lekin o'zbeklarda uning ayricha xususiyati ham mavjud. Xuddi mana shu xususiyat leksemaning madaniy komponentli ma'noga ega so'z sifatida izohlashga imkon beradi. A. Mirsaidov leksemalarning milliy-madaniy o'ziga xos tafovutlarini o'rganar ekan, **sandiq** leksik birligini quyidagicha izohlaydi: "Sandiq, odatda, uy-ro'zg'or jihozi hisoblanadi. Lekin, qadimdan o'zbek xalqi sandiqni uyning mehrobiga joylashtiradi va ustiga ko'rpa-to'shaklar yig'ib qo'yadi. Bundan tashqari, o'zbek xalqi rasm-rusumlariga ko'ra, kelinning ota-onasi kelin kuyov xonadoniga ketayotgan paytda beriladigan "kelin

sepi” deb atalgan turli uy-ro’zg’or anjomlari, ko’rpa-to’shaklar qatorida sandiq ham bo’ladi. Sandiqning mana shu qo’shimcha ma’nolari uning madaniy komponent ma’nolari hisoblanadi [10].

O’zbek xotin-qizlari azal-azaldan kashtachilik bilan shug’ullanib, uy-ro’zg’or uchun ishlatiladigan ko’plab buyumlarni tayyorlaganlar, qizlarni ham yoshlikdan shunga odatlantirib borganlar. Kelin sepining asosiy qismini ham shunday buyum va matolar tashkil qilgan. Masalan, **joypo’sh** [f-t], **taxmonpech**, [f-t], **jukka solma** (sheva) – ko’rpa va ko’rpacha taxlami ustidan tashlab qo’yishga mo’ljallangan, turli xil rangli ipak bilan kashtalangan 2x3 m chamasidagi mato (*2x3 m embroidered fabric of different colors of silk, designed to be laid on the bed and bed sheets*) yoki **zardevor** [f-t] – uy devorining yuqori qismiga osib qo’yish uchun turli rangdagi iplar bilan bezak berib tikilgan mato [11]. (*a sewn fabric embellished with threads of different colors to hang on the top of the wall*).

Maslovaga ko’ra, M. Xaydegger “tasvir” deganda, avvalambor, biron bir narsani namoyish qilinishi haqida o’ylaymiz, “mohiyatan anglashilgan olam tasviri esa dunyoni aks ettiruvchi tasvirni emas, balki tasvirdek anglangan dunyoni ifodalaydi”, – deb yozgan edi. Haqiqiy dunyoning aksi sifatida olamning real tasviri bilan lisoniy tasviri o’rtasida murakkab munosabatlar mavjud. Olam tasvirini makon (yuqori-pastki, o’ng-chap, sharqiy-g’arbiy, uzoq-yaqin), vaqt (kunduzi-kecha, qish-yoz), miqdoriy, axloqiy va boshqa parametrlar asosida aks ettirish mumkin. Uning shakllanishiga til, urf-odatlar, tabiat va landshaft, ta’lim-tarbiya va boshqa ijtimoiy omillar ta’sir ko’rsatadi [12].

O’zbek etnografiyasida to’y va boshqa turli marosimlar, bola tarbiyasi, milliy sport o’yinlari, xalqning yashash tarzida uy-ro’zg’or buyumlari bilan chambarchas bog’liq odatlar juda ko’p. Ular xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan bo’lib, o’ziga xos milliy belgi va xususiyatlarning muhim jihatlarini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. И.В. Лингвокультурологические и эколингвистические аспекты неонимации. Дисс.канд.филол. наук. Волгоград, 2014. – С.12-13
2. Mirtojiev ., M., Maxmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O’zbekiston, 1992.
3. A.Mo’minova Lingvokulturologiyaning zamonaviy tilshunoslikdagi o’rni xususida. <http://www.journal.fledu.uz>; D.Xudoyberganova Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013; O’zbek tili o’xshatishkarining izohli lug’ati. N. Maxmudov, D. Xudoyberganova. – Toshkent:Ma’naviyat Маънавият, 2013; Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug’ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015; Baxranva D.K. Antropoformizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari (o’zbek va ispan tillari materiallarida) . Filol. fanlari bo’yicha falsafa doktori (Phd) diss. avtoref. – Toshkent, 2017; Kadirova B.P. Belgi bildiruvchi leksemalarning lihgvokulturologik xususiyatlari. Filol. fanlari bo’yicha falsafa doktori (Phd) diss. avtoref. – Toshkent, 2019
4. F.F. Usmonov O’zbek tilida o’xshatishlarning lingvomadaniy . Filol. fanlari bo’yicha falsafa doktori (Phd) diss. avtoref. – Toshkent, 2020
5. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – Москва: Издательский центр «Академия», 2001. – С.62

6. M.R.Galieva O'zbek lingvomadaniyatida diniy dunyo tasvirining verballashuvi // Tilshunoslikning dolzarb masalalari: VI. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B.77.
7. A.Mirsaidov O'zbek tilidagi milliy-madaniy leksik birliklarni ingliz tiliga tarjima muammolari // Zamonaviy tilshunoslik va lingvodidaktikaning Kommunikativ aspektlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand, 2019.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildlik 5-jild, – Toshkent: O'zME, 2008. – B.378.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildlik 5-jild, – Toshkent: O'zME, 2007. – B.439.
10. A. Mirsaidov O'sha joyda.
11. N.Mirzaev O'zbek tili etnogrofizmlarining izohli lug'ati . – Toshkent: Fan, 1991. – B. 32
12. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – Москва: Издательский центр «Академия», 2001. – С.64.